

PhD Shaxzod XAMDAMOV

Oriental universiteti

JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA SHAKLLANTIRILADIGAN LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI

Annotatsiya. Maqolada jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi va uning mahalliy boshqaruvdagi o‘rni tahlil qilinadi. Fuqarolarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xorijiy tajribada ishtirokchi byudjetlash jarayonining afzalliklari, aholining davlat qarorlarida ishtirokini kengaytirish mexanizmlari hamda amaliy natijalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda jamoatchilik fikriga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jamoatchilik fikri, ishtirokchi byudjetlash, byudjet jarayoni, tashabbusli loyiha, loyihalarni moliyalashtirish, davlat moliyasi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy faollik, samaradorlik, hududiy tashabbuslar, aholining ishtiroki, ijtimoiy-iqtisodiy loyihalar, davlat va jamiyat hamkorligi, barqaror rivojlanish.

SYSTEM OF FINANCING PROJECTS BASED ON PUBLIC OPINION

Abstract. This article analyzes the system of financing projects based on public opinion and its role in local governance. It highlights key issues such as achieving the socio-economic development of regions by supporting citizens' initiatives, ensuring the efficient use of budget funds, and strengthening the role of civil society institutions. Furthermore, the paper provides a comparative analysis of the advantages of participatory budgeting processes in international practice, including the mechanisms for expanding public participation in state decision-making and their practical outcomes. Based on the research findings, the article offers scientific conclusions and practical recommendations for further improving the system of financing public opinion-based projects in our country.

Keywords: public opinion, budget process, initiative project, project financing, public finance, civil society, social activism, cooperation mechanisms, regional initiatives, population participation, socio-economic projects, state-society cooperation, sustainable development.

Kirish

Jahon tajribasidan ko‘rishimiz mumkinki davlat byudjeti mablag‘larining safarbar etilishida bevosita davlat va xalq o‘rtasidagi o‘zaro uzviy bog‘liqlikni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda fuqorolarning byudjet jarayoniga jalg qilish mexanizmining joriy qilinishi hudularda aholini qiyab

kelayotgan muammolarning yechimini topish va jamoatchilikni byudjet jarayonining ishtirokchisiga aylantirishda alohida vosita bo‘lib xizmat qilmoqda

Shu bilan birgalikda, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish byudjetni dasturiy amalga oshirish tartibini joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan maqsad byudjet samaradorligini oshirish bo‘lib, oxir oqibatda xalq farovonligini ta’minalash va unga xizmat qilishdir. Shu sababli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda Respublikasida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi yanada takomillashib bormoqda va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minalashda samarali byudjet amaliyoti ekanligini ko‘rsatmoqda. Buning isboti, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning uzviyilagini va davomiyligini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan mazkur tarixiy hujjatda mamlakatimizni rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad” belgilandi. Belgilangan maqsadlarda mamlakatimizni nafaqat kelgusi besh yillikda, balki uzoq muddatli rivojlanish jarayonlarida ham milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini oshirish kabi masalalar aks ettirilgan [1]. Jumladan, “Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish” deb nomlangan 12-maqsadda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini joriy etish, fuqarolarning davlat, jamiyat va mahalla hayotida faol ishtirok etishlarini rag‘batlantirish, tashabbusli budgetlashtirish jarayonida faol ishtirok etgan hamda tashabbus ko‘rsatgan fuqarolarni mukofotlash masalalari bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar nazarda tutilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030 to‘g‘risida”gi Farmonining “Fiskal barqarorlikni ta’minalash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish” deb nomlangan 46-maqsadda ham “Natijaga yo‘naltirilgan budgetlashtirish” amaliyotiga o‘tish ko‘zda tutilgan [2].

Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish va aholining ijtimoiy faolligini oshirishda fuqarolarning bevosita ishtirokiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi mahalliy byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish,

fuqarolarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda hududlarni barqaror rivojlantirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu tizimning joriy etilishi fuqarolarni davlat boshqaruvi va byudjet jarayonlariga keng jalb etish, ularning ehtiyoj va takliflarini inobatga olish imkonini bermoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizda "Ishtirokchi byudjetlash" mexanizmini keng joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Aholi tomonidan ilgari surilgan tashabbusli loyihalar tanlov asosida moliyalashtirilib, mahalliy infratuzilmani yaxshilash, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, mahallalarda qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon nafaqat resurslardan oqilona foydalanish, balki fuqarolarning davlat boshqaruviga ishonchini mustahkamlash va ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirishga ham hissa qo'shmoqda.

Shu bilan birga, xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik fikriga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish tizimi shaffoflik, samaradorlik va hisobdorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, O'zbekiston sharoitida ushbu mexanizmni yanada takomillashtirish, fuqarolik jamiyatni institutlari va mahalliy hokimiyat organlari o'rtaida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda davlat boshqaruvida aholining faolligini oshirish, jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda mahalliy va milliy darajadagi loyihalarni amalga oshirish mexanizmlari keng o'rganilmoqda. Xususan, demokratik jamiyatlarda fuqarolarning o'z tashabbuslari asosida ishlab chiqilgan loyihalarni moliyalashtirish tizimi jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik byudjeti tushunchasi ko'proq qo'llanilib, u aholining takliflari asosida shakllanadigan va mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni anglatadi. Masalan, A. Smith tadqiqotlarida jamoatchilik fikriga tayangan holda loyihalarni moliyalashtirish natijasida davlat xarajatlari samaradorligi oshishi, aholining davlat siyosatiga ishonchi kuchayishi qayd etilgan [3].

Mahalliy sharoitda olib borilgan tadqiqotlarda ham jamoatchilik ishtiroki keng muhokama etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarida "fuqarolar tashabbuslari jamg'armasi" orqali aholi tomonidan

taklif etilgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlari belgilangan. Shu borada, iqtisodchi olimlar (A. Abduraxmonov, D. Xo'jayev, M. Qodirov va boshqalar) o'z ilmiy ishlari orqali jamoatchilikka asoslangan moliyalashtirishning afzalliklari – ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi, aholining o'z hududini boshqarishda faollashuvi, budget mablag'laridan samarali foydalanish – ni alohida ta'kidlab o'tganlar [8].

Xorijiy tajriba ham shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik fikriga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish tizimi nafaqat mahalliy, balki milliy miqyosda ham o'z samarasini bermoqda. Masalan, Braziliya va Portugaliya tajribasida participatory budgeting (ishtirokchi byudjet) keng tatbiq etilib, aholining bevosita takliflari asosida yuzlab ijtimoiy loyihalar amalga oshirilgan. Germaniya va Polsha misolida esa ushbu tizim mahalliy demokratiyani mustahkamlashda muhim o'rinn tutmoqda.

Shuningdek, ilmiy manbalarda moliyalashtirishning turli shakllari – davlat budjeti mablag'lari, homiylik, xususiy sektor bilan hamkorlik va xalqaro donorlar mablag'lari – tahlil qilingan. A. Ostrom va E. Ostrom kabi tadqiqotchilar loyihalarni moliyalashtirishda aholining o'z hissasi (crowdfunding) va mahalliy hamjamiyat resurslarini safarbar qilishning ijobiy jihatlarini ko'rsatib o'tganlar [4].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlarda jamoatchilik fikriga asoslangan loyihalarni moliyalashtirish tizimi davlat moliya siyosatida yangi bosqich sifatida talqin etilmoqda. U nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki fuqarolik jamiyatining rivojlanishini ham ta'minlaydi. Shu bois, mazkur sohada xalqaro tajribani o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirilgan takomillashtirilgan mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimini ilmiy asosda o'rganish va tahlil qilish uchun bir qator ilmiy metodlar qo'llanildi. Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlar, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiya, ma'lumotlarni guruhlash, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish jarayoni ma'lum bir hudud jamoatchiligi, fuqarolik jamiyati institutlari va alohida fuqarolarning o'z aholi punktlarini infratuzilmaviy rivojlantirish yo'llarini byudjet jarayonida belgilashda ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Xususan, oxirgi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilish doirasida iqtisodiy-moliyaviy statistikadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, byudjet jarayonining shaffofligini oshirishning yangi mexanizmlarini joriy etish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va oshkoraligni oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Masalan, 2021-yildan boshlab yiliga ikki marta "Tashabbus byudjet" va bir marta "Mening yo'lim" loyihalari va 2024-yildan boshlab yilda bir martadan "Mening bog'im" hamda "Mening bog'cham" loyihalari jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish mexanizmi asosida amalga oshirilmoqda.

"Mening yo'lim" loyihasi, tuman va shahar byudjetlarida ichki yo'llarni ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'larning kamida 50 foizini fuqarolar takliflari asosida yo'naltirishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bu loyiha orqali fuqarolar o'z yashash joylaridagi yo'llarning holati haqida bevosita fikr bildirish imkoniga ega bo'lib, hududlarning infratuzilmasini yaxshilashda faol ishtirok etadilar. Bu esa shaffoflikni ta'minlash va jamoatchilik nazoratini oshirishga xizmat qiladi. Loyihaning amalga oshirilishi natijasida ko'plab ichki yo'llar ta'mirlanib, transport harakati yaxshilandi va fuqarolarning hayot sifati oshdi.

"Mening bog'im" loyihasi bu loyiha doirasida "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklar" ini tashkil etish maqsad qilingan.

Respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'larning kamida 50 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan ushbu loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Loyihalar qiymati 250 million so'mdan oshmagan holda taklif qilinadi va "Ochiq byudjet" axborot portalı orqali ovoz berish jarayoni har yili yanvar-fevral oylarida o'tkaziladi.

“Mening bog‘cham” loyihasi ham jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda bolalar bog‘chalarini yaxshilash va rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar moliyalashtiriladi.

1-jadval

Tashabbusli byudjet jarayonining 2023-yil doirasida ajratilgan mablag‘lar, (mlrd. so‘mda) [10]

Hudud nomi	2023-yil	
	1-mavsum	2-mavsum
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	121,64	97,07
Andijon viloyati	234,63	112,03
Buxoro viloyati	190,44	87,68
Jizzax viloyati	158,06	63,76
Qashqadaryo viloyati	292,53	135,28
Navoiy viloyati	112,46	60,27
Namangan viloyati	276,56	105,65
Samarqand viloyati	278,28	142,98
Surxondaryo viloyati	228,73	107,31
Sirdaryo viloyati	57,57	42,13
Toshkent viloyati	229,82	132,18
Farg‘ona viloyati	374,99	133,79
Xorazm viloyati	165,72	86,21
Toshkent shahri	161,47	118,05
Jami	2 882,89	1 424,37
Hammasi	4 307,26	

Tashabbusli byudjet jarayonining 2023-yil mavsumlari natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 1-mavsumda jami 2985 ta 2-mavsumga kelib esa uning deyarli yarmi 1192 ta loyihalarning g‘olib bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki mamlakatimizda 1-mavsumning o‘zidayoq qariyb 71,5 foiz loyihalar hal qilinmoqda. Bu jarayonning 2 marotaba o‘tkazilishi yanayam ko‘proq xalqni qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etilishiga sabab bo‘lmoqda.

2023-yil hisobi bo‘yicha jami tashabbusli byudjet loyihalarini moliyalashtirish uchun 4 trln 307 mlrd 260 mln so‘m mablag‘ ajratilgan. 2022-yil bu mablag‘lar 2 trln 620 mlrd 300 mln tashkil etgan. 2023-yil ajratilgan mablag‘lar deyarli 2 barobarga oshgan. Chunki bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi apreldagi “Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol mahallalarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi Iqtisodiyot va moliya vazirligining PQ-117-son qarori tufaylidir. 2023-yil taqsimot birinchi mavsum doirasida o‘tkazilgan tashabbusli byudjetlashtirish jarayonida 1309 ta loyihani amalga oshirish uchun qo‘srimcha 1,3 trillion so‘m ajratilib, ularning har biri 2000 dan ortiq ovoz olgan, biroq g‘olib deb topilmagan.

Mazkur jadvalda 2023-yil bo‘yicha hududlar kesimida 1-mavsum va 2-mavsum ko‘rsatkichlari keltirilgan hamda umumiy natijalar jamlangan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, barcha hududlarda 1-mavsumdagi ko‘rsatkichlar 2-mavsumdagidan ancha yuqori bo‘lgan. Bu esa yil davomida loyihalar hajmi yoki faoliyat ko‘rsatkichlari keskin kamayganidan dalolat beradi.

Eng yuqori natijalar Farg‘ona viloyatida qayd etilgan: 1-mavsumda 374,99 mlrd so‘m, 2-mavsumda esa 133,79 mlrd so‘m. Shunga qaramay, bu hudud boshqa hududlarga nisbatan yetakchilikni saqlab qolgan. Samarqand (278,28 → 142,98), Qashqadaryo (292,53 → 135,28) va Andijon (234,63 → 112,03) viloyatlarida ham yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan bo‘lsa-da, 2-mavsumda deyarli yarmiga tushib ketgan.

Nisbatan past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (57,57 → 42,13), Navoiy (112,46 → 60,27) va Jizzax (158,06 → 63,76) viloyatlarida qayd etilgan. Bu hududlarda loyihalarning hajmi va qiymati ham boshqa viloyatlarga nisbatan kamroq.

Umumiy natjalarga ko‘ra, 1-mavsumda jami 2 882,89 mlrd so‘mni tashkil qilgan ko‘rsatkich 2-mavsumda 1 424,37 mlrd so‘mgacha kamaygan. Bu 50% dan ortiq qisqarish demakdir. Yil yakunida barcha hududlar bo‘yicha umumiy hajm 4 307,26 mlrd so‘mni tashkil etган.

Xulosa qilib aytganda, 2023-yilda barcha hududlarda 2-mavsum ko‘rsatkichlari sezilarli darajada kamaygan. Bu jarayon loyihalarni moliyalashtirish hajmining mavsumlar kesimida notekis taqsimlanishini va resurslardan foydalananishda yilning birinchi yarmi ancha faolroq kechishini ko‘rsatadi. Shu sababli kelgusida mablag‘larni mavsumlar bo‘yicha muvozanatli taqsimlash, ikkinchi mavsumda ham barqaror natjalarni ta’minalash zarur.

“Tashabbusli byudjet” jarayonining 2024-yil 1-mavsumi doirasida Respublika miqyosida 2295ta mahalla bo‘yicha jami 2824ta loyiha g‘olib deb topilib, ularni moliyalashtirishga 3,4 trln so‘m yo‘naltirilgan. Ovoz berish jarayonlarida 11,7 mln kishi ishtirot etdi. 2025-yil 1-mavsum doirasida esa Respublika miqyosida 1971ta mahalla bo‘yicha jami 2369ta loyiha g‘olib deb

topilib, ularni moliyalashtirishga 3,3 trln so‘m yo‘naltirilgan. Ovoz berish jarayonlarida 10,4 mln kishi ishtirok etdi.

O‘zbekistonning yashil makonini kengaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan eng dolzarb tashabbuslardan biri bu — “Mening bog‘im” loyihasidir.

Ushbu loyiha tashabbusli byudjetlash tizimi doirasida amalga oshirilib, fuqarolarning o‘z yashash hududlarini obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish va ekologik muhitni sog‘lomlashtirish borasidagi istak va ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllanadi.

2-jadval

2024-yildagi “Mening bog‘im” loyihasi [10]

Hudud nomi	Ajratilgan mablag‘lar (milliard so‘m)	G‘olib loyihalari summasi (milliard so‘m)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4,25	4,05
Andijon viloyati	4,00	3,73
Buxoro viloyati	3,25	2,87
Jizzax viloyati	3,25	2,87
Qashqadaryo viloyati	4,00	4,00
Navoiy viloyati	2,75	2,50
Namangan viloyati	3,50	3,50
Samarqand viloyati	4,00	3,77
Surxondaryo viloyati	3,7	3,75
Sirdaryo viloyati	2,75	2,75
Toshkent viloyati	5,50	5,11
Farg‘ona viloyati	4,75	4,33
Xorazm viloyati	3,25	2,63
Toshkent shahri	3,00	2,80

Loyihaning mohiyatida har bir fuqaroning: “Bu bog‘ meniki, men uni qadrlayman va asrayman”, degan ichki hissiyotini uyg‘otish yotadi. Chunki “Mening bog‘im” nafaqat ko‘kalamzor maskanni anglatadi, balki jamoatchilik faolligi, fuqarolik mas’uliyati va ekologik madaniyatning yorqin timsolidir.

Loyiha doirasida aholi o‘z mahallalarida yoki jamoat joylari atrofida yashil hududlar barpo etish takliflarini ilgari suradi. Ushbu takliflar elektron platforma orqali ovozga qo‘yilib, eng ko‘p ovoz olgan g‘oyalar moliyalashtiriladi va amalda bajariladi. Umumiy ko‘rinishda, aksariyat hududlarda ajratilgan mablag‘lar bilan g‘olib loyihalari summasi o‘rtasida katta tafovut mavjud emas, ya’ni moliyalashtirish

jarayonida ajratilgan mablag‘larning asosiy qismi samarali yo‘naltirilganini ko‘rish mumkin.

Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida ajratilgan mablag‘lar bilan g‘olib loyihalar summasi to‘liq mos keladi, bu hududlarda resurslardan foydalanishning yuqori darajadagi muvofiqlashtirilganini ko‘rsatadi. Surxondaryoda esa hatto g‘olib loyihalar summasi ajratilgan mablag‘dan biroz yuqori (3,75 mlrd so‘m), bu qo‘sishimcha manbalarni jalb etish yoki moliyalashtirishda aniqlik kiritilganidan dalolat berishi mumkin.

Toshkent viloyati (5,50 mlrd so‘m – 5,11 mlrd so‘m) va Farg‘ona viloyati (4,75 mlrd so‘m – 4,33 mlrd so‘m)da eng katta mablag‘lar ajratilgan bo‘lib, g‘olib loyihalar summasi ham yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Bu hududlarda aholi tashabbuslari va loyiha sonining ko‘pligi ta’minlangan.

Qoraqalpog‘iston, Andijon, Samarcand va Toshkent shahrida mablag‘larning katta qismi amalda o‘zlashtirilgan, farq esa juda katta emas. Buxoro, Jizzax va Xorazm viloyatlarida ajratilgan mablag‘lar bilan g‘olib loyihalar summasi o‘rtasida biroz salmoqli farq (taxminan 0,3–0,6 mlrd so‘m) mavjud, bu esa loyihalarning bir qismi amalga oshmay qolgan yoki rejulashtirilgan mablag‘larning to‘liq o‘zlashtirilmaganini anglatadi.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, hududlarning aksariyatida ajratilgan mablag‘lar g‘olib loyihalarga samarali taqsimlangan. Qashqadaryo, Namangan va Sirdaryo viloyatlari yuqori darajada muvofiqlikni ko‘rsatgan bo‘lsa, Buxoro, Jizzax va Xorazm viloyatlarida mablag‘larni o‘zlashtirishda ayrim kamchiliklar mavjud. Bu esa hududlar kesimida moliyalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

Dastur orqali daraxt va butalar ekish, dekorativ o‘simpliklar parvarishi, yoritish moslamalari o‘rnatish, dam olish uchun qulay maskanlar yaratish kabi turli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda “Mening bog‘im” loyihasi ko‘plab hududlarda ijobiy samara bermoqda. Ilgari qarovsiz bo‘lgan yoki chiqindilarga to‘lib yotgan joylar aholi ishtirokida yashil makonlarga aylantirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, fuqarolarning mahalliy muhitga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirmoqda. Shuningdek, loyihaning amalga oshirilishi ekologik muvozanatni tiklash, havoning tozaligini ta’minlash, bolalar uchun sog‘lom muhit yaratish borasida ham muhim natijalar bermoqda.

3-jadval

Tashabbusli byudjet jarayonining 2024-yil va 2025-yil 1-mavsum doirasida ajratilgan mablag‘lar orasidagi farqlar, (mlrd. so‘mda) [10]

Hudud nomi	2024 yil	2025 yil	Farqi
Hudud nomi	1-mavsum	1-mavsum	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	215,54	241,96	26,42
Andijon viloyati	271,03	293,30	22,27
Buxoro viloyati	217,43	226,89	9,46
Jizzax viloyati	194,19	142,21	-51,98
Qashqadaryo viloyati	253,05	293,24	40,19
Navoiy viloyati	157,4	133,79	-23,61
Namangan viloyati	257,94	256,84	-1,1
Samarqand viloyati	315,13	323,24	8,11
Surxondaryo viloyati	254,49	237,69	-16,8
Sirdaryo viloyati	134,24	64,42	-69,82
Toshkent viloyati	360,66	312,37	-48,29
Farg‘ona viloyati	350,15	400,61	50,46
Xorazm viloyati	197,15	198,70	1,55

Yurtimizda birinchi marotaba 2024-yilning iyun-iyul oylarida “Mening bog‘im” loyihasining o‘tkazildi. Loyiha doirasida Respublika miqyosida jami 215 ta loyiha g‘olib deb topildi. Ularni moliyalashtirishga 52 mlrd so‘m ajratildi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy hayotga faol jalb qilish, jamoatchilik fikri asosida byudjet mablag‘larini samarali taqsimlash borasida qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Shunday loyihalardan biri — “Mening bog‘cham” loyihasidir.

Yurtimizda yana bir yangi loyiha birinchi marotaba “Mening bog‘cham” loyihasi 2024-yilning oktyabr oyida o‘tkazildi. Loyiha doirasida Respublika miqyosida jami 451 ta loyiha g‘olib deb topildi. Ularni moliyalashtirishga 397,6 mlrd so‘m ajratildi.

Keltirilgan jadvalda 2024 va 2025-yillarda hududlar kesimida 1-mavsum ko‘rsatkichlari hamda ularning farqi aks ettirilgan. Umuman olganda, ayrim viloyatlarda sezilarli o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, boshqalarida pasayish qayd etilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ko‘rsatkich 26,42 birlikka o‘sib, ijobiyl natija qayd etilgan. Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida ham mos ravishda 22,27 va 40,19 birlik o‘sish kuzatilib, mintaqalarda samarali rivojlanish tendensiyasi

kuzatilmoque. Ayniqsa, Farg'ona viloyatida 50,46 birlik o'sish eng yuqori natija sifatida ajralib turadi.

Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlarida ijobiy, ammo nisbatan kichik farq qayd etilgan. Bu hududlarda ko'rsatkichlar deyarli barqaror saqlanib qolganini ko'rish mumkin.

Biroq bir qator viloyatlarda pasayish kuzatilmoque. Jumladan, Jizzax (-51,98), Sirdaryo (-69,82) va Toshkent (-48,29) viloyatlarida keskin pasayish qayd etilgan bo'lib, bu salbiy tendensiya sifatida baholanadi. Surxondaryo (-16,8), Navoiy (-23,61) va Namangan (-1,1) viloyatlarida ham ko'rsatkichlarning pasayishi kuzatilmoque.

Umuman olganda, jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hududlarda ijobiy o'sish kuzatilayotgan bo'lsa-da, bir nechta viloyatlarda keskin pasayish mavjud. Bu esa hududlar o'rtasidagi tafovutlarning kuchayishidan dalolat beradi va muayyan hududlarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda tizimli islohotlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Keltirilgan jadval tahliliga ko'ra, 2024–2025-yillar kesimida hududlar o'rtasida ko'rsatkichlarning turlicha dinamikasi kuzatildi. Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon va Qoraqalpog'iston hududlarida ijobiy o'sish qayd etilgan bo'lsa, Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlarida keskin pasayish kuzatildi. Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlarida esa nisbatan barqaror natijalar saqlanib qolgan. Umuman olganda, ayrim hududlarda yuqori sur'atdagi o'sishlar kuzatilgani holda, boshqa hududlarda pasayishlar mavjudligi hududlar kesimidagi tafovutlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlash, mahalliy muammolarni tezkor hal etish hamda hududlarning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Mazkur tizim aholining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bir qator hududlarda mablag'larning ajratilishi va g'olib loyihalarga yo'naltirilishi o'zaro muvofiqlashtirilgan bo'lsa-da, ayrim viloyatlarda ajratilgan mablag'lar bilan amalda

o‘zlashtirilgan mablag‘lar o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. Bundan tashqari, 2023-yil natijalari ikkinchi mavsum ko‘rsatkichlari birinchi mavsumdagidan keskin pasayganini ko‘rsatib, moliyalashtirish jarayonida mavsumiy muvozanat yetarlicha ta’minlanmaganini anglatadi.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, kelgusida ushbu tizimni yanada takomillashtirish zarur. Avvalo, loyihalarni tanlash va moliyalashtirish jarayonlarida shaffoflik va ochiqlikni kuchaytirish muhimdir. Bu orqali jamoatchilikning ishonchi oshadi va aholining faol ishtiroki ta’minlanadi. Shuningdek, ajratilgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini baholash bo‘yicha aniq mezonlarni ishlab chiqish va muntazam monitoring olib borish zarur. Hududlar kesimida mablag‘larni taqsimlashdaadolat va tenglik tamoyillariga qat’iy amal qilish, ikkinchi mavsum ko‘rsatkichlaridagi pasayishni kamaytirish uchun yil davomida resurslarni muvozanatli taqsimlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish talab etiladi.

Bundan tashqari, jamoatchilik fikrini yig‘ish va tahlil qilish jarayonida zamonaviy raqamlı platformalardan keng foydalanish, aholi tomonidan kiritilgan takliflarni tezkor saralash hamda ularni tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Xorijiy tajribalar, xususan, Braziliya, Portugaliya, Germaniya va boshqa mamlakatlardagi ishtirokchi byudjetlash amaliyotlarini chuqur o‘rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish, innovatsion moliyalashtirish usullarini joriy etish tizim samaradorligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi mahalliy boshqaruvni demokratlashtirish, fuqarolarning ijtimoiy hayotda ishtirokini kuchaytirish va davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlashda dolzARB mexanizm hisoblanadi. Uning amaliyotda yanada rivojlanishi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki fuqarolik jamiyatni institutlarining mustahkamlanishini ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni-<https://lex.uz/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston - 2030 to‘g‘risida”gi Farmoni-<https://lex.uz/>

3. Smith, A. (2019). *Participatory Budgeting and Public Finance Efficiency*. London: Routledge.
4. Ostrom, E., & Ostrom, A. (2020). *Collective Action and Local Governance*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Shah, A. (2007). *Participatory Budgeting*. Washington D.C.: World Bank Publications.
6. OECD (2022). *Open Government and Citizen Participation: Global Report*. Paris: OECD Publishing.
7. UNDP (2021). *People's Participation in Budgeting Processes*. New York: United Nations Development Programme.
8. Abduraxmonov A., Xo'jayev D., Qodirov M. (2022). "Mahalliy byudjetni boshqarishda jamoatchilik fikrining o'rni". *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №6.
9. Xamdamov Sh. I. (2023). *Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ishtirokchi byudjetlashning ahamiyati*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
10. www.openbudget.uz-O'zbekiston Respublikasi "Ochiq Byudjet" portali